O`ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SODDA GAPDA SUBYEKT PREDIKAT O`RTASIDA MAZMUNIY SINTAGMATIK MUNOSABATLAR TURLARI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI

Azamova Gulruh Akbar qizi NavDU
Doktoranti
Ilmiy rahbar : dots. G.M.Norova

Mazkur ilmiy maqolada sodda gap tarkibida subyekt va predikat o‘rtasida yuzaga keladigan mazmuniy sintagmatik munosabatlar o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi.
Kalit so`zlar : mazmuniy sintagmatik munosabat, sintagmatik aloqa, gap yadrosi, semantik rol, semantik markaz, holat predeksiyasi.

O`zbek va ingliz tilida sodda gapda subyekt predikat munosabatiturlari, ularning o`ziga xos jihatlarini o`rganishda sodda gapda subyekt va predikat o‘rtasida kuzatiladigan asosiy mazmuniy sintagmatik munosabatlar tahlil qilinadi. Mazmuniy sintagmatik munosabat subyekt va predikatning grammatik bog‘lanishidan tashqari, ularning semantik rollari**,** voqelikdagi munosabatni ifodalash xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu masala funksional grammatika, semantika va sintaksis kesishgan nuqtada turadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot funksional–semantik yo‘nalish doirasida olib borildi va unda bir nechta zamonaviy lingvistik metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sodda gapda subyekt va predikat o‘rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatlarni o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy jihatdan aniqlashga qaratilgan.

1. **Qiyosiy-tipologik metod.** Ushbu metod yordamida o‘zbek va ingliz tillarida sodda gap tarkibidagi subyekt–predikat munosabatlarining **umumiy (universal)** va **xususiy (tilga xos)** jihatlari aniqlandi. Qiyosiy-tipologik tahlil til birliklarining faqat tashqi shaklini emas, balki ularning semantik va funksional xususiyatlarini ham ochib berishga imkon berdi.
2. **Funksional-semantik tahlil metodi.** Ushbu metod subyekt va predikatning gapdagi grammatik vazifasidan tashqari, ularning **semantik rollari** (agent, holat egasi, egalik qiluvchi)ni aniqlash imkonini berdi. Bu metod yordamida mazmuniy sintagmatik munosabatlar turlari aniqlanib, ularning nutqiy funksiyalari izohlandi.
3. **Deskriptiv (tasviriy) metod.** Bu metod orqali sodda gaplarda subyekt–predikat munosabatlarining real nutqdagi ko‘rinishlari tizimli ravishda tavsiflandi. Deskriptiv tahlil til materialini tasniflash, misollarni guruhlash va ularni ilmiy izohlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

4. **Semantik modellashtirish metodi.** Tadqiqotda semantik modellashtirish metodidan foydalanilib, subyekt–predikat o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlar agentiv**,** holat–belgi**,** egalilik–mavjudlik kabi modellarga ajratildi. Har bir model doirasida gaplarning ichki semantik tuzilishi aniqlandi va umumlashtirildi. Bu metod mazmuniy sintagmatik munosabatlarni tizimli va mantiqiy asosda izohlash imkonini berdi.

Sodda gap sintaksisida subyekt va predikat o‘rtasidagi munosabat nafaqat shakliy (grammatik), balki **mazmuniy (semantik) sintagmatik** xarakterga ega. Mazmuniy sintagmatik munosabat subyekt va predikatning real voqelikdagi o‘zaro semantik bog‘lanishini, ya’ni **kim? nima? qanday holatda? nima qiladi? nimaga ega?** kabi munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda bu masala funksional sintaksis va semantik predikatsiya doirasida o‘rganilgan bo‘lib, Sh.Rah-matullayev, N. Mahmudov, A.M. Muhin, V.G. Gak, J. Lyons, R. Quirk kabi olimlar tomonidan nazariy asoslangan.Soddda gaplarda subyekt va predikat o`rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatlar quyidagi turlarga bo`linadi :

1.Agentiv (bajaruvchi–harakat) mazmuniy sintagmatik munosabat

Agentiv munosabat subyekt va predikat o‘rtasidagi eng markaziy va universal mazmuniy sintagmatik aloqadir. Bu munosabatda subyekt harakatning faol bajaruvchisi, predikat esa shu harakatni ifodalovchi semantik markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Sh. Rahmatullayev sodda gap yadrosi aynan bajaruvchi va harakat birligiga asoslanishini ta’kidlaydi[1]. Agentiv munosabat odatda dinamik fe’llar orqali ifodalanadi va subyekt ongli yoki jismoniy faoliyat egasi bo‘ladi. O‘zbek tilida bu munosabat ko‘pincha fe’l kesimning shaxs-son shakllari orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida esa agentivlik qat’iy SVO modeli va faol nisbat bilan mustahkamlangan. J. Lyons bu munosabatni agent–action semantic relation sifatida tavsiflaydi[2]. Livgvist olim Rothstein nazaryasiga ko`ra subyekt faoliyatni amalga oshiradi, predikat esa bu faoliyatni bildiradi[3]. Bu turdagi munosabat semantik rol orqali aniqlanadi. Agentiv munosabat real voqelikdagi sabab–natija bog‘lanishini ifodalab, gapning predikativ markazini tashkil etadi. Shu sababli bu turdagi munosabat sodda gaplarning semantik asosini belgilaydi. Ya`ni bu turdagi gaplarda subyekt faoliyatni bevosita amalga oshiradi, predikat esa bu harakatni semantik jihatdan tasvirlaydi.

Misollar

1. Talaba maqola yozdi.

Bu gapda *talaba* subyekt bo‘lib, ongli harakatni bajaruvchi agent vazifasini bajaradi. *Yozdi* predikati esa faol, dinamik harakatni bildiradi. Mazmuniy jihatdan harakatning manbai subyekt hisoblanadi. Subyekt va predikat o‘rtasida sababchi–bajaruvchi

[1] Rahmatullayev,Sh. *O‘zbek tili grammatikasi. II jild. Sintaksis.* Toshkent: Fan nashriyoti, 1976.
[2] Lyons, John. *Introduction to Theoretical Linguistics.* Cambridge: Cambridge University Press, 1968.
[3] Rothstein, S. (2004). *Predicates and Their Subjects*. Springer. https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-010-0690-3

munosabat mavjud bo‘lib, bu agentiv sintagmatik munosabatning asosiy belgisi sanaladi.

1. The student wrote an article.

Bu gapda *the student* agent-subyekt bo‘lib, *wrote* fe’li orqali aniq harakat bajarilganini ko‘rsatadi. Ingliz tilida fe’lning o‘tgan zamon shakli predikativlikni kuchaytiradi. Mazmuniy sintagmatik munosabat agentiv xarakterda bo‘lib, subyekt harakatni amalga oshiruvchi semantik markaz sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Holat–belgi (stativ) mazmuniy sintagmatik munosabat

Holat–belgi munosabatda subyekt harakat bajaruvchi emas, balki muayyan holat, sifat yoki belgi egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu turdagi munosabatda predikat dinamik harakatni emas, balki statik holatni ifodalaydi. N. Mahmudov bunday predikatsiyani holat predikatsiyasi deb ataydi[4]. O‘zbek tilida holat–belgi munosabat ko‘pincha nol bog‘lovchi orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida esa *to be* fe’li ushbu munosabatning asosiy grammatik vositasi hisoblanadi. R. Quirk stativ predikatsiyani ingliz tilidagi sifatli predikatlarning markaziy modeli sifatida ko‘rsatadi[5]. Yana bir tilshunos Mikhailovaning fikrichabu turdagi subyekt faoliyatni amalga oshirmaydi, balki holatni bildiradi, predikat esa shu subyektning holatini ko`rsatadi[6]. Mazkur munosabat real voqelikni tavsiflashga xizmat qiladi. Subyekt harakat manbai emas, balki belgi tashuvchisi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli stativ munosabat tavsifiy va informativ xarakterga ega.

Misollar

O‘zbek tilida:

1. Xona yorug‘.

Bu gapda *xona* subyekt bo‘lib, u harakat bajarmaydi. *Yorug‘* predikati subyektning sifat belgisini bildiradi. Mazmuniy sintagmatik munosabat holat–belgi asosida shakllangan. Predikativlik belgining subyektga nisbatlanishi orqali yuzaga chiqadi.

1. The room is bright.

Bu gapda *is* bog‘lovchi fe’l predikatni subyektga bog‘lab turadi. *Bright* sifati subyektning doimiy holatini ifodalaydi. Mazmuniy munosabat stativ xarakterda bo‘lib, subyekt belgi tashuvchisi sifatida talqin qilinadi.

3.Egalilik–mavjudlik mazmuniy sintagmatik munosabat

Egallik–mavjudlik munosabat subyekt va predikat o‘rtasida egalik, mavjudlik yoki yo‘qlik mazmunini ifodalaydi. Bu munosabatda subyekt egasi, predikat esa mavjudlik holatini bildiradi. A.M.Muhin bunday predikatsiyani **mavjudlikka**

[4] Mahmudov, N. *Til va ma’no.* Toshkent: *Fan* nashriyoti, 2007.
[5] Quirk, Randolph; Greenbaum, Sidney; Leech, Geoffrey; Svartvik, Jan. *A Comprehensive Grammar of the English Language.* London: Longman, 1985.
[6] Mikhailova, O. A., & Mikhailova, J. N. (2020). *The Semantic Subject in Russian Impersonal Sentence*. Filclass. https://www.filclass.ru/en/archive/2020/vol-25-2/semanticheskij-subekt-v-russkikh-bezlichnykh-predlozheniyakh

asoslangan predikativ munosabat sifatida tavsiflaydi[7]. O‘zbek tilida bu munosabat *bor / yo‘q* birliklari orqali ifodalanadi. O`zbek tilshunoslari Safarova va Jumayeva fikricha ekzintensial gaplarda subyekt mavjudlikni bildiradi, predikat esa shu mavjudlikni ko`rsatadi. Ingliz tilida esa *have* fe’li asosiy semantik yukni bajaradi[8]. Mazkur munosabat harakatdan ko‘ra holat va munosabatni aks ettiradi. Subyekt semantik markaz bo‘lib, egalik qiluvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Egallik–mavjudlik munosabati axborot berish va tasdiqlash funksiyasini bajaradi. Bu turdagi munosabat sodda gaplarning muhim mazmuniy modellari qatoriga kiradi.

Misollar

1. Mening kitobim bor.

Bu gapda egalik munosabati yetakchi hisoblanadi. *Bor* predikati mavjudlikni bildiradi. Subyekt egalik qiluvchi sifatida talqin qilinadi. Mazmuniy sintagmatik munosabat mavjudlik–egalik asosida shakllangan.

1. I have a book.

Bu gapda *have* fe’li egalik semantikasini ifodalaydi. *I* subyekti egalik qiluvchi shaxsdir. Predikat orqali subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabat mazmuniy jihatdan aniq ifodalanadi.

Mazmuniy sintagmatik munosabatlarning umumiy jihatlari

O‘zbek va ingliz tillari tipologik jihatdan turli guruhlarga mansub bo‘lsa-da, sodda gapda subyekt va predikat o‘rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatlarda muhim umumiyliklar mavjud. Eng avvalo, har ikkala tilda ham sodda gap predikativ birlik sifatida subyekt va predikatning mazmuniy birligiga asoslanadi. J. Lyons ta’kidlaganidek, predikatsiya har qanday tilning universal semantik kategoriyasi hisoblanadi. Shu bois subyekt har doim ma’lum semantik rolni (agent, holat egasi, egalik qiluvchi) bajaradi.

Har ikkala tilda ham agentiv (bajaruvchi–harakat), holat–belgi va egallik–mavjudlik munosabatlari mazmuniy sintagmatik munosabatlarning asosiy turlarini tashkil etadi. O‘zbek tilidagi *Talaba o‘qiydi* va ingliz tilidagi *The student reads* gaplari semantik jihatdan bir xil modelga tayanadi: subyekt agent, predikat esa harakatni bildiradi. Bu holat V.G. Gak tomonidan tilning semantik universalligi bilan izohlanadi[9].

Bundan tashqari, har ikkala tilda holat–belgi munosabatlari subyektning harakatini emas, uning sifat yoki holatini ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi *Xona yorug‘* va ingliz tilidagi *The room is bright* gaplarida predikatning vazifasi subyektni

[7] Muhin, A. M.*Sintagmatika i paradigmatika v sovremennom yazykoznanii.* Moskva: Nauka, 1983.
[8] Safarov, F. S., & Jumayeva, G. E. (2022). *Morphological Subject in the Uzbek Language*. GEJournal. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1699
[9] Gak, V. G. *Semantika sintaksicheskix struktur*. Moskva: Nauka, 1977.

tavsiflashdan iborat. N. Mahmudov bunday munosabatlarni tavsifiy predikatsiya sifatida baholaydi[4]. Demak, mazmuniy sintagmatik munosabatlar darajasida o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasida sezilarli umumiylik mavjud.

Mazmuniy sintagmatik munosabatlarning xususiy jihatlari

Mazmuniy sintagmatik munosabatlarning xususiy jihatlari asosan ularning grammatik ifodalanish vositalari va struktur modellari bilan bog‘liq. O‘zbek tilida subyekt va predikat o‘rtasidagi mazmuniy munosabat ko‘pincha nol bog‘lovchi asosida yuzaga chiqadi. Masalan, *Osmon musaffo* gapida predikativlik hech qanday bog‘lovchi fe’l ishtirokisiz amalga oshadi. Ingliz tilida esa bunday holat deyarli imkonsiz bo‘lib, *to be* fe’li majburiy hisoblanadi (*The sky is clear*). R. Quirk bu hodisani ingliz tilining qat’iy sintaktik normasi bilan izohlaydi[5].

Agentiv munosabatlarda ham farqli jihatlar mavjud. O‘zbek tilida fe’l kesim shaxs-son ko‘rsatkichlari orqali subyekt bilan uyg‘unlashadi va so‘z tartibi nisbatan erkin bo‘ladi. Ingliz tilida esa SVO modeli qat’iy bo‘lib, agentivlik asosan so‘z tartibi orqali belgilanadi. Bu farq A.M. Muhin tomonidan agglutinativ va analitik tillar o‘rtasidagi sintagmatik tafovut sifatida ko‘rsatiladi[7].

Egallik–mavjudlik munosabatida ham xususiylik yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida *bor/yo ‘q* birliklari mavjudlikni bildirsa, ingliz tilida *have* fe’li egalikning asosiy ifodalovchisidir. Mazmuniy jihatdan bu gaplar o‘xshash bo‘lsa-da, ularning sintagmatik qurilishi farqlidir. Shunday qilib, xususiy jihatlar mazmuniy munosabatning o‘zida emas, balki uning ifoda vositalarida namoyon bo‘ladi.

Munosabat turi	**Ingliz tilida**	**O‘zbek tilida**	**Umumiy jihat**
Agent-subyekt	The teacher explains…	O‘qituvchi darsni tushuntiradi	Subyekt faoliyatni amalga oshiradi
Tema/subyekt	The sky is blue	Osmon moviy	Subyekt holatni bildiradi
Ekzistensial	There is a book	Stolda bir kitob bor	Mavjudlikni bildiradi

O‘zbek va ingliz tillarida sodda gapda mazmuniy sintagmatik munosabatlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu munosabatlar tilning semantik asosini tashkil etuvchi universal hodisadir. Shu bilan bir qatorda ularning grammatik ifodalanish vositalari har bir tilning tipologik xususiyatlariga bog‘liq holda farqlanadi. Agentiv, holat–belgi va egallik–mavjudlik munosabatlari sodda gaplarning mazmuniy yadrosini tashkil etadi. Umumiylik subyekt va predikatning semantik rollarida namoyon bo‘lsa, xususiylik ularning grammatik va sintaktik ifodasida ko‘zga tashlanadi. Mazkur tahlil kelgusida tilshunoslik sohasida izlanishlar olib borayotgan yoshlarimizning ilmiy maqola va dissertatsiya tadqiqotlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Lyons, John. *Introduction to Theoretical Linguistics.* Cambridge: Cambridge University Press, 1968.
2. Quirk, Randolph; Greenbaum, Sidney; Leech, Geoffrey; Svartvik, Jan.
A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman, 1985.
3. Rothstein, S. (2004). *Predicates and Their Subjects*. Springer. https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-010-0690-3
4. Lyons, John. *Introduction to Theoretical Linguistics.* Cambridge: Cambridge University Press, 1968.
5. Gak, V. G. *Semantika sintaksicheskix struktur.* Moskva: Nauka, 1977.
6. Mikhailova, O. A., & Mikhailova, J. N. (2020). *The Semantic Subject in Russian Impersonal Sentence*. Filclass. https://www.filclass.ru/en/archive/2020/vol-25-2/semanticheskij-subekt-v-russkikh-bezlichnykh-predlozheniyakh
7. Muhin, A. M.*Sintagmatika i paradigmatika v sovremennom yazykoznanii*. Moskva: Nauka, 1983.
8. Gak, V. G. *Semantika sintaksicheskix struktur*. Moskva: Nauka, 1977.
9. Safarov, F. S., & Jumayeva, G. E. (2022). *Morphological Subject in the Uzbek Language*. GEJournal. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1699
10. G‘ulomov, A., Asqarova, M. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis.* Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1987.
11. Mahmudov, N. *Til va ma’no.* Toshkent: *Fan* nashriyoti, 2007.